
Konservatsiya asoslari monografiyasi chop etildi

Arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Noyob obyektlar” bo‘limi bo‘lim boshlig‘i Akmaljon O’lmasovning “Konservatsiya asoslari” monografiyasi chop etildi. Monografiya konservatsiya va restavratsiyaning asosiy tushunchalari, konservatsiya nazariyasi, sohaning O‘zbekiston va jahon miqyosidagi tadrijiy tarixi, rivojlanish bosqichlari, xalqaro va mahalliy me’yoriy hujjatlar, qadimgi san’at asarlari (devoriy suratlar, loy-ganch haykallar) hamda muzey ashyolari (kulolchilik, tosh, metal, yog‘och, suyak, qog‘oz va b.)ning ta’mirlash usullari bilan tanishtiradi.





Ўлмасов Акмалжон Фозилович

Архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Фанлар академияси Санъатшунослик институти "Ноёб объектлар" бўлими бўлим бошлиғи, ACCU UNESCO халқаро мухбир аъзоси. Шимолий Бақтриянинг Кушон даври меъморий безаклари, қадимги санъат асарлари ва археологик топилмалар консервасия ва реставрацияси соҳасида мутахассис. 50 дан ортиқ илмий, илмий-оммабоп мақолалар, тезислар ҳамда хорижда нашр қилинган ҳаммуаллифликдаги монографиялар муаллифи.

ISBN 978-9943-747-85-2
9 789943 747852

Shuningdek, unda ta'mirlashda qo'llaniladigan xom-ashyolar, polimerlar va erituvchilarning xususiyatlari, asbob-uskuna va zamonaviy jihozlarga tavsif berilgan. Monografiya san'at asarlari va muzey ashyolarini konservatsiya va restavratsiya qilish sohasidagi oliy va o'rta-maxsus bilim yurtlari, muzeylar va ta'mirlash yo'nalishidagi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.